



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

MIGRATSIYA SHAROITIDA YOSHLAR IJTIMOYILASHUVINING INSTITUTSIONAL MUAMMOLARI VA SOTSIOLOGIK TAHLILI (QORAQALPOG'ISTON MISOLIDA)

Kalmuratov Sansizbay Toktabaevich

University of Innovation Technologies, bo'lim boshlig'i

Annotatsiya

Maqolada mehnat migratsiyasining transformatsiyalashuvi sharoitida yoshlar ijtimoiylashuvi va tarbiyasining dolzarb muammolari sotsiologik tahlil etilgan. Tadqiqotda respondent-validatsiyasi va institutsional yondashuv asosida ota-onalar migratsiyasi natijasida yuzaga keladigan «tarbiyaviy vakuum», ijtimoiy nazorat mexanizmlarining kuchsizlanishi va deviant xulq-atvor xavfi o'rganilgan. Shuningdek, migratsiya jarayonlarining oilaviy qadriyatlar tizimiga ta'siri hamda mahalla va ta'lim muassasalarining kompensatorlik imkoniyatlari baholangan. Yakunda mehnat migratsiyasining ijtimoiy oqibatlarini yumshatish va voyaga etmaganlar ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan strategik takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Mehnat migratsiyasi, ijtimoiylashuv, tarbiyaviy defitsit, ijtimoiy nazorat, oila instituti, transformatsiya, deviant xulq-atvor, ijtimoiy adaptatsiya.

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СОЦИАЛИЗАЦИИ МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ МИГРАЦИИ (ПРИМЕР КАРАКАЛПАКСТАНА)

Калмуратов Сансизбай Токтабаевич

University of Innovation Technologies, начальник отдела

Аннотация

В статье представлен социологический анализ современных проблем социализации и воспитания молодежи в контексте трансформации трудовой миграции. Исследование, основанное на валидации респондентов и институциональном подходе, изучает «образовательный вакуум», возникающий в результате миграции родителей, ослабление механизмов социального контроля и риск девиантного поведения. Также оценивается влияние миграционных процессов на систему семейных ценностей и компенсаторные возможности района и образовательных учреждений. В заключение предлагаются стратегические решения для смягчения социальных последствий трудовой миграции и усиления социальной защиты несовершеннолетних.

Ключевые слова: Трудовая миграция, социализация, образовательный дефицит, социальный контроль, институт семьи, трансформация, девиантное поведение, социальная адаптация.

INSTITUTIONAL PROBLEMS AND SOCIOLOGICAL ANALYSIS OF YOUTH SOCIALIZATION IN THE CONDITIONS OF MIGRATION (EXAMPLE KARAKALPAKSTAN)

Kalmuratov Sansizbay Toktabaevich

University of Innovation Technologies, Head of Department

Abstract

This article analyzes the social problems of youth education in the context of labor migration from a sociological point of view. In particular, the educational gap, the weakening of social control, and the influence on the social behavior of young people arising from the long-term absence of parents from the family in the process of migration are being studied. Social factors influencing the upbringing of young people, including the role of the family, educational institutions, and the mahalla institute, are also analyzed. According to the research results, labor migration not only brings economic benefits, but also creates certain social problems in the upbringing of youth. The article develops practical recommendations for eliminating these problems.

Keywords: labor migration, youth education, social problems, family institution, social control, socialization, psychological impact, consequences of migration.

Globalashuvning jadallashuvi natijasida mehnat migratsiyasi zamonaviy dunyoning

transchegaraviy ijtimoiy-iqtisodiy determinantiga aylandi. O'zbekiston kontekstida mehnatga layoqatli aholining xalqaro mehnat bozoriga integratsiyalashuvi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bilan bir qatorda, jamiyatning ijtimoiy stratifikatsiyasi va oila institutining an'anaviy funksional ierarxiyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xususan, migratsiya omillari ta'sirida oilaning reproduktiv va ekzistensial funksiyalaridan ko'ra, uning ijtimoiy nazorat va tarbiyaviy mexanizmlari transformatsiyaga uchramoqda. Ota-ona va farzand o'rtasidagi ijtimoiy masofaning kengayishi natijasida yoshlar ijtimoiylashuvida "institutsional bo'shliq" yuzaga kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, yosh avlodning qadriyatlar tizimida deformatsiyalar paydo bo'lishiga va jamiyatda yangi turdagi ijtimoiy xavflarning shakllanishiga zamin yaratmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy jamiyatda yoshlar tarbiyasi nafaqat oila, balki ta'lim muassasalari, mahalla, ommaviy axborot vositalari va raqamli muhit ta'siri ostida shakllanmoqda. Mehnat migratsiyasi sharoitida esa ushbu ijtimoiy institutlarning roli yanada ortib bormoqda. Biroq ushbu institutlar har doim ham oila o'rini to'liq bosa olmaydi, bu esa tarbiyaviy muammolarning chuqurlashuviga olib keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Migratsiyaning alohida jihatlari strukturali funksionalizm maktabi vakillari E. Dyurkgeym, T. Parsons, R. Merton tomonidan o'rganilgan. Jumladan, T. Parsons jamiyatning tizimli funksional xususiyatlaridan kelib chiqib, migratsiyaga turtki beruvchi sotsial omillarni o'rganishda integrativ yondashuvni qo'llagan. Uning fikricha, jamiyat hayoti ijtimoiy, shaxsiy va madaniy tizimlar kesishmasida kechadi, shu bois aholi migratsiyasi ushbu uch o'lchamli ijtimoiy makonda uzoq muddatli sotsial transformatsiyalarni shakllantiradi [1]. E. Dyurkgeym esa bunday sotsial transformatsiyalar bir tomondan jamiyatda ijtimoiy ahamiyatli funksiyalarni bajarsa, ikkinchi tomondan ijtimoiy muvozanatni izdan chiqaruvchi disfunktsional holatlarni shakllantirishi mumkin, deb hisoblaydi [2]. R. Merton fikricha, xuddi shunday disfunktsional vaziyatlar migratsiyaning ochiq yoki latent, ya'ni yashirin sotsial funksiyalari bois shakllanishi ham mumkin [3].

Zamonaviy migratsiya nazariyalarida Stephen Castles va Douglas Massey tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlar muhim o'rin egallaydi. Xususan, S. Castles migratsiyani globallashtirish jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilib [4], uning jamiyatdagi asosiy institutlar, jumladan, oila va ta'lim tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi.

D. Massey esa migratsiya tizimlari nazariyasini ilgari surib, migratsiya jarayonlari ijtimoiy tarmoqlar, tarixiy aloqalar va institutsional omillar asosida shakllanishini asoslaydi [5]. Uning fikricha, migratsiya vaqt o'tishi bilan o'z-o'zini qo'llab-quvvatlovchi tizimga aylanib, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi va ayniqsa yoshlar ijtimoiylashuvi jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, migratsiyaning yoshlar tarbiyasiga ta'sirini tahlil qilishda "ijtimoiy kapital" nazariyasi (J. Koulman) muhim ahamiyat kasb etadi. Koulman ta'kidlaganidek, oiladagi ijtimoiy kapital — bu nafaqat ota-onaning borligi, balki ular va farzand o'rtasidagi muntazam muloqot va munosabatlar sifatidir. Ota-ona migratsiyasi ushbu ijtimoiy kapitalning zaiflashishiga va natijada yoshlarda ta'limga bo'lgan intilishning susayishiga olib keladi [6].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mehnat migratsiyasi mamlakatdagi umumiy migratsiya oqimining asosiy omili bo'lib qolmoqda, chunki O'zbekiston hukumati xorijda ishlashni xohlovchi O'zbekiston fuqarolarining xavfsiz, muntazam va tartibli mehnat migratsiyasini ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarini davom ettirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2024-yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligiga (TMMA) 100 ming nafar ishchi va xorijiy tillarni biladigan malakali kasb egalarini tashkillashtirilgan tashqi mehnat migratsiyasi uchun tayyorlash bo'yicha topshiriq bergan edi. Shundan so'ng TMMA 2024-yilda Germaniyada xorijiy ish beruvchilar bilan hamkorlikda 50 000 ta bo'sh ish o'rni uchun tanlov o'tkazishini e'lon qildi, jumladan, hamshira, yuk mashinasi haydovchisi, yuk mashinalari va qishloq xo'jaligi texnikasiga texnik xizmat ko'rsatish, mehmonxona boshqaruvi, restoran ishi, turizm, hunarmandchilik, mexatronika, qurilish va boshqa sohalar [7].

Xalqaro migratsiya tashkilotining ma'lumotlariga asosan, 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, xalqaro migrantlarning soni 281 millionga yetgan bo'lib, bu dunyo aholisining 3,6 foizini tashkil etadi. Ularning 164 milliondan ortig'ini (60%) mehnat migrantlari, 130 millionini (48%) xotin-qizlar tashkil etadi [8]. Qolaversa, Xalqaro migratsiya tashkilotining ko'lami kengayib, oxirgi yigirma yillikda unga a'zo davlatlar soni 76 tadan 174 taga ko'payganini [9] kuzatishimiz mumkin. Ushbu ko'rsatkichlardan kelib chiqib aytish mumkinki, dunyoda xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiyani ta'minlashga oid muammolarni

tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Soʻnggi yillardagi kuzatuvlar migratsiya oqimining yosharib borayotganini koʻrsatmoqda. Statistika tahlillariga koʻra, Qoraqalpogʻistondan tashqi migratsiyaga chiquvchilarning qariyb 35–40 foizini 18–30 yoshgacha boʻlgan yoshlar tashkil etadi. Migratsiyadagi ota-onalarning farzandlari orasida taʼlimga boʻlgan qiziqishning pasayishi, nazoratsiz qolgan bolalarning 15–20 foizida ijtimoiy deviatziya (xulq-atvor oʻzgarishi) xavfi kuzatiladi. Ichki migratsiya asosan Nukus shahri va Toshkent shahriga (taʼlim va mehnat), tashqi migratsiya esa Qozogʻiston, Rossiya va Janubiy Koreya kabi davlatlarga yoʻnalgan. Migratsiya sharoitida tarbiya asosan ijtimoiy tarmoqlar va videoaloqa orqali amalga oshirilmoqda. Bu ota-ona va bola oʻrtasidagi emotsional bogʻliqlikning zaiflashishiga olib kelishi mumkin.

Orolboʻyidagi ekologik vaziyat yoshlar ongida kelajakning noaniqligi tuygʻusini shakllantirmoqda. Ota-onalarning ekologik va iqtisodiy bosim ostida migratsiyaga ketishi natijasida bolalarda nafaqat tarbiyaviy vakuum, balki “ekologik depressiya” alomatlarini kuzatiladi. Bu holat yoshlarning oʻz tugʻilgan yeri bilan boʻlgan emotsional bogʻliqligini zaiflashtirib, ularda reproduktiv yoshga yetmasdan migratsion kayfiyatning shakllanishiga olib kelmoqda. Qoraqalpogʻistondagi migratsiya jarayonlari faqat iqtisodiy ehtiyoj emas, balki ekologik xavfsizlikni taʼminlashga qaratilgan majburiy ijtimoiy adaptatsiya mexanizmidir. Bu esa migrant oilalar farzandlarida ijtimoiy va psixologik bosimni ikki barobarga oshiradi.

2023–2024-yillardagi statistik tahlillarga koʻra, Qoraqalpogʻistondan tashqi mehnat migratsiyasiga ketayotganlarning umumiy sonida 18–30 yoshdagilar salmogʻi 37,4 foizni tashkil etgan. Bu koʻrsatkich hududdagi mehnat bozorida demografik bosim va yoshlar oʻrtasidagi iqtisodiy mobillikning yuqoriligini koʻrsatadi. Tadqiqot doirasida migrant oilalar farzandlari oʻrtasida oʻtkazilgan anketa soʻrovnomalari natijasiga koʻra, ota-ona nazoratidan uzoq boʻlgan oʻsmirlarning 18 foizida turli darajadagi deviatziya alomatlarini — taʼlim olishdan boʻyin tovlash, mayda bezorilik, ijtimoiy izolyatsiya — xavfi mavjudligi aniqlangan.

Qoraqalpogʻiston Respublikasi Statistika boshqarmasining 2023-yilgi demografik koʻrsatkichlari tahlili shuni koʻrsatadiki, mintaqadagi migratsion oqimning qariyb 38 foizini 30 yoshgacha boʻlgan yoshlar tashkil etmoqda [10]. Shu bilan birga, migrant oilalar farzandlarining ijtimoiy holatini oʻrganish boʻyicha oʻtkazilgan hududiy soʻrovnomalari (masalan, 2024-yil, Nukus, Xoʻjayli va Moʻynoq tumanlari misolida) natijalariga koʻra, respondent bolalarning 15–20 foizida ota-ona bilan emotsional aloqaning uzilishi oqibatida xulq-atvor deformatsiyalariga moyillik kuzatilgan.

UNICEF tomonidan oʻtkazilgan tadqiqotlarda ota-onalarning migratsiyasi, xususan, bolaning taʼlim olishiga, sogʻligʻiga, ovqatlanishiga va ijtimoiy holatiga salbiy taʼsir koʻrsatib, tushkunlik (depressiya) holatini keltirib chiqarishi aniqlangan. Uning zimmasiga uy yumushlarining yuklatilishi bolaning erta ulgʻayishiga sabab boʻladi. Koʻpincha, onalar 6 yoshga toʻlmagan bolalarini tashlab migratsiya qilishmoqda. Bu yillar bolalarning rivojlanishida muhim davr sanaladi. Chunki bu yosh ota-onalar bilan bolalar oʻrtasida munosabatlar oʻrnatish davri hisoblanadi. Tabiiyki, ota-onasi ketgan bolalarning ruhiyatida oʻzgarishlar kuzatiladi. Xalqimiz orasida vasiylar qoʻlida qolgan farzandlar tarbiyasida tajovuzkorlikning har xil turlari: qoidalarga amal qilmaslik, mushtlashish, kattalarga va tengdoshlarga nisbatan qoʻpollik, uydan ketib qolish, odamovi boʻlib qolish holatlari uchraydi. Bolalarning qariyb 37 foizi qarindoshlari qaramogʻida yashaydi. Vasiylar bolalarni tarbiya va nazorat qilishda turli usullardan foydalanishadi: bolalarning 12 foizi imtiyozlardan mahrum qilingan, 3 foizi “telba”, “dangasa” va shu kabi soʻzlar bilan kamsitilgan, bolalarning 8 foiziga nisbatan qoʻpol munosabatda boʻlingani sotsiologik tadqiqotlarda aniqlangan [11].

Bundan tashqari, migratsiya jarayonida ota-onalar bilan bolalar oʻrtasidagi aloqaning uzilishi bolalarning ruhiy holati va kelajakdagi ijtimoiy rivojlanishiga jiddiy taʼsir qiladi. Psixologik va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashning yetishmasligi bolalarning oʻz-oʻzini anglash va jamiyatga moslashish qobiliyatiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Shu bilan birga, vasiylarning tarbiyaviy yondashuvlaridagi turlicha usullar bolalarning kelajakdagi munosabatlari va hayotdagi muvaffaqiyatlariga bevosita taʼsir koʻrsatishi mumkin. Ota-onalar migratsiya qilganda, farzandlarga yuqori darajada eʼtibor, mehr va tarbiya zarur, chunki bu bolalar uchun muhim rivojlanish bosqichidir.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar shuni koʻrsatadiki, mehnat migratsiyasi zamonaviy jamiyatda muhim ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida nafaqat ijobiy iqtisodiy natijalarni, balki yoshlar tarbiyasi bilan bogʻliq murakkab ijtimoiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Ota-onalarning uzoq muddat davomida oiladan uzoqda boʻlishi natijasida oilaning tarbiyaviy va nazorat funksiyalarining zaiflashuvi kuzatiladi. Bu esa

yoshlarning ijtimoiylashuv jarayoniga, ularning xulq-atvori, qadriyatlari va ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Migrant oilalardagi bolalarda emotsional yetishmovchilik, ijtimoiy nazoratning pasayishi, deviant xulq-atvoriga moyillik kabi holatlar nisbatan ko'proq uchraydi. Ayniqsa, vasiylar qo'lida tarbiyalanayotgan bolalarda tarbiya usullarining turlicha bo'lishi ularning kelajakdagi ijtimoiy moslashuviga ta'sir etuvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda yoshlar tarbiyasida oila bilan bir qatorda ta'lim muassasalari, mahalla va raqamli muhitning roli ortib borayotgan bo'lsa-da, ushbu institutlar har doim ham oila o'rnini to'liq bosa olmaydi. Natijada tarbiyaviy bo'shliq yuzaga kelib, bu jarayon ijtimoiy muammolarning chuqurlashuviga olib keladi. Shu sababli mehnat migratsiyasi sharoitida yoshlar tarbiyasini samarali tashkil etish uchun kompleks yondashuv zarur. Xususan, ota-onalar bilan farzandlar o'rtasidagi muntazam aloqa, ta'lim muassasalarida psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, mahalla darajasida ijtimoiy nazoratni takomillashtirish hamda davlat tomonidan migrant oilalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida aniqlangan "tarbiyaviy vakuum" va ijtimoiy nazorat sustlashuvi muammolarini tizimli hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Institutsional va huquqiy himoyani kuchaytirish.
2. Ta'lim va psixologik qo'llab-quvvatlash.
3. Raqamli texnologiyalar va masofaviy tarbiya.
4. Ijtimoiy sheriklikni mustahkamlash.

Xulosa qilib aytganda, Qoraqalpog'iston sharoitida mehnat migratsiyasining salbiy ijtimoiy oqibatlarini yumshatish faqat iqtisodiy choralar bilan emas, balki yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini ilmiy asoslangan pedagogik va sotsiologik yondashuvlar yordamida boshqarish orqali amalga oshirilishi lozim. Umuman olganda, mehnat migratsiyasi jarayonini faqat iqtisodiy nuqtayi nazardan emas, balki ijtimoiy va tarbiyaviy jihatdan ham chuqur o'rganish va unga mos ravishda tizimli choralar ko'rish jamiyat barqarorligi va yosh avlodning barkamol rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Парсонс Т. Система современных обществ / пер. с англ. Л.А. Седова и А.Д. Ковалева; под ред. М.С. Ковалевой. — Москва: Аспект Пресс, 1998. — С. 21.
2. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии / пер. с фр. и послесловие А.Б. Гофмана. — М.: Наука, 1990. — С. 58.
3. Мертон Р. Социальная теория и социальная структура. — Москва: Хранитель, 2006. — С. 76.
4. Castles S. The Age of Migration. — 2014.
5. Massey D. Theories of International Migration. — 1993.
6. Coleman J.S. Social Capital in the Creation of Human Capital // American Journal of Sociology. — 1988. — Vol. 94. — P. S95–S120.
7. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi (TMMA).
8. International Migration 2020: Report / Department of Economic and Social Affairs Population Division; United Nations. — New York, 2020. — P. 2–3, 10.
9. IOM Members and Observers, as of April 2021. — URL: International Organization for Migration
10. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi ma'lumotlari. — URL: Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi
11. YUNICEF tomonidan o'tkazilgan "O'zbekiston sharoitidagi migratsiyaning bolalarga ta'siri" tadqiqotining to'liq hisoboti (2019). — URL: UNICEF Uzbekistan Report